O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT AT TA’LIMINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Rapiyev Alisher Parda o‘g‘li
“Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM,
boshqarma boshlig‘i
alisherrapiyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda nodavlat AT ta’lim muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari, jumladan, IT-Park rezidentlari uchun soliq imtiyozlari va “IT-Talents” loyihasi doirasidagi subsidiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2022-2025-yillar davomidagi statistik ko‘rsatkichlar asosida AT sohasidagi kadrlar tayyorlash sifati va ularning oylik maoshlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Xalqaro sertifikatlash tizimining o‘rni va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *IT-ta’lim, raqamlashtirish, subsidiya, IT-Park, sun’iy intellekt, moliyaviy rag‘bat.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, bank-moliya tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy AT mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 589-son qarori asosida nodavlat AT ta’lim markazlariga berilgan soliq imtiyozlari xususiy sektorni faollashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi - AT ta’limini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning joriy holatini baholash va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bu esa o‘z navbatida raqamli iqtisodiyotning malakali kadrlar boyishini va shu orqali yangi rivojlanish bosqichiga chiqishini ta’minlaydi.

Ushbu moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari nafaqat kadrlar tayyorlash, balki mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YAIM) raqamli xizmatlar ulushini oshirish va intellektual kapitalni kapitallashtirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi - AT ta’limini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning joriy holatini baholash va uni yanada takomillashtirish orqali raqamli iqtisodiyotning multiplikativ o‘sishini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy o‘rganish va hujjatlar bilan ishlash metodlaridan foydalanildi. Asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida IT Park Uzbekistan va Raqamli texnologiyalar vazirligining 2022-2026-yillardagi rasmiy hisobotlari olindi. Tadqiqot obyekti sifatida 419 ta ta’lim rezidenti va 67 ming nafar bitiruvchining ko‘rsatkichlari tanlab olindi.

Natijalar

Olib borilgan tahlillar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

Soliq va bojxona imtiyozlari: IT-Park rezidentlari uchun daromad solig‘i 7,5% gacha tushirilgan, korporativ va ijtimoiy soliqlardan 0% stavka bo‘yicha ozod etilgan;

“IT-Talents” loyihasi: Bitiruvchilarni eksportchi kompaniyalarga ishga joylashtirganlik uchun markazlarga BHMning 75-105 baravarigacha subsidiyalar ajratildi. Bu chora raqamli xizmatlar eksporti hajmining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.;

Sertifikatlash: 2025-yilga kelib 44 mingdan ortiq yoshlar xalqaro sertifikatlar oldi, bunda xarajatlarning 60% dan 100% gacha qismi davlat tomonidan qoplab berildi;

“Bir million dasturchi” va “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari loyihalari”: Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan va barcha fuqarolar va nodavlat ta’lim tashkilotlariga bepul IT ta’lim olish imkoniyatini beruvchi platforma ishga tushirildi;

“ToT” loyihasi: Nodavlat ta’lim muassasalarining IT mentorlarini malakasini bepul oshirish tizimi: Malaka oshirish quyidagi strategik yo‘nalishlarda olib boriladi: sun’iy intellekt va mashinalarni o‘rganish, ma’lumotlar tahlili, kompyuter tarmoqlari, bulutli texnologiyalar hamda kiberxavfsizlik.

Yo‘nalishlar va daromad: Sun’iy intellekt (9.1 mln so‘m) va IT Project Management (10 mln so‘m) yo‘nalishlari eng yuqori daromad keltiruvchi sohalar sifatida aniqlandi. Yuqori maoshli ish o‘rinlarining yaratilishi ichki iste’mol bozorida raqamli to‘lovlar va elektron tijorat tranzaksiyalari hajmining o‘sishiga bilvosita turtki bo‘lmoqda.

Muhokama va Xulosalar

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, moliyaviy rag‘batlantirish tizimi AT-kadrlar sifatini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraganda, nodavlat AT ta’limiga kiritilgan investitsiyalar “inson kapitali” ko‘rinishida davlatga yuqori rentabellik bilan qaytmoqda. Biroq, kadrlar tayyorlashda hali ham “Kompyuter savodxonligi” kabi past malakali yo‘nalishlar ulushi saqlanib qolmoqda, bu esa iqtisodiyotning texnologik murakkablashuv jarayonini sekinlashtiradi. Xulosa o‘rnida:

1. Moliyaviy resurslarni ko‘proq Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi murakkab yo‘nalishlarga yo‘naltirish lozim.

2. Hududlar orasida raqamli tafovutni kamaytirish uchun chekka tumanlardagi o‘quv markazlariga qo‘shimcha rag‘batlanlantirish mexanizmlarini joriy etish taklif etiladi.

3. Bank-moliya tizimi uchun maxsus fintex (FinTech) o‘quv dasturlarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (2026). *Nodavlat AT ta’lim markazlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risidagi 589-son qarori;*
2. IT Park Uzbekistan. (2025). *Ta’lim rezidentlari faoliyati bo‘yicha yillik statistik tahlillar;*
3. IT Park Uzbekistan. (2023–2025). *O‘zbekiston IT ekotizimi bo‘yicha yillik sharhlar.*
4. Coursera.org. (2024–2025). *Digital Skills Development Reports.*
5. Aileaders.uz. (2025). *“Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi bo‘yicha ochiq ma’lumotlar.*
6. Edu.digital.uz. (2025). *Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi veb-sahifasi.*
7. Digital.uz. (2025). *Raqamli texnologiyalar vazirligi veb-sahifasi.*